

## XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TOSHKENT SHAHRI AHOLISI TARKIBIDAGI O'ZGARISHLAR

**Mahammadxo'jayev Dostonbek G'aybullo o'g'li**

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti tarix kafedrası 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15747442>

**Annotatsiya.** Mazkur mavzuda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Toshkent shahrining demografik holati, aholining milliy, ijtimoiy va kasbiy tarkibidagi o'zgarishlar tahlil qilinadi.

Rossiya imperiyasi tomonidan Toshkentning bosib olinishi va bu davrda olib borilgan siyosiy, iqtisodiy islohotlar shaharning aholisi soni va tarkibida sezilarli o'zgarishlarga olib kelgan. Ayniqsa, rus aholisi ulushining ortishi, yangi mahallalar va sanoat tumanlarining vujudga kelishi, migratsiya jarayonlari natijasida aholi tarkibining xilma-xillashuvi kabi omillar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bu o'zgarishlarning shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri ham yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Toshkent, XIX asr, XX asr boshlar, demografiya, migratsiya, rus bosqini, sanoatlashuv, shahar aholisi, ijtimoiy tarkib, milliy tarkib.

XIX asrning 2-yarmi va XX asr boshlarida Toshkent aholisi sezilarli o'sish va o'zgarishlarni boshdan kechirdi, bu ham mahalliy, ham global tarixiy o'zgarishlar, jumladan, Rossiya imperiyasining kengayishi, yangi savdo yo'llarining rivojlanishi, shaharning modernizatsiya qilinishini aks ettirdi. Bu davrda Toshkent nisbatan kichik O'rta Osiyo vohasi bo'lgan shahardan Rossiya imperiyasining muhim shahar markaziga aylandi. XIX asrning ikkinchi yarmining boshlarida Toshkentda taxminan 150-200 ming kishi yashagan. Biroq, bu raqam aniq emas va o'sha paytda tizimli yozuvlar yo'qligi sababli turli manbalarda farqlanadi<sup>1</sup>.

Shahar aholisi asosan o'zbeklardan iborat bo'lgan, ammo bu yerda tojiklar, qozoqlar, turkmanlar, ruslar va yahudiylar kabi boshqa turli etnik guruhlar ham yashagan. Bunday xilma-xil etnik jamoalarning mavjudligi shaharning ijtimoiy va madaniy landshaftini shakllantirgan, har bir guruh Toshkentning o'ziga xos xususiyatiga hissa qo'shgan.

Toshkent aholisi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni rus sayyohlari va harbiylarining asarlarida uchratish mumkin. Masalan, 1865-yilda shaharni bosib olgan general M.G. Chernyaev Toshkent aholisini 100 ming kishi deb baholagan<sup>2</sup>. Biroq bu ma'lumotlar taxminiy xarakterga ega edi. Toshkent aholisi haqidagi nisbatan aniq ma'lumotlar XIX asr oxiridan paydo bo'la boshladi. 1897-yilgi Butun Rossiya aholisi ro'yxati natijalariga ko'ra, Toshkent aholisi 155,7 ming kishini tashkil etgan. Bu ma'lumot ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ishonchli deb e'tirof etiladi. XX asr boshlarida Toshkent aholisi haqida ma'lumotlar muntazam ravishda to'planib borilgan. 1904-yilda shahar dumasining ma'lumotiga ko'ra, Toshkent aholisi 170 ming kishini tashkil etgan<sup>3</sup>. 1910-yilda esa 201 ming kishiga yetgan. Toshkent aholisining etnik tarkibi haqida ham ma'lumotlar mavjud.

<sup>1</sup> Shermatov X. *Toshkent tarixi va madaniyati* - T.: Sharq, 2002. – B. 45.

<sup>2</sup> Черняев М.Г. Доклад о занятии города Ташкента // Туркестанский сборник. Т. 20. -СПб., 1869. -С. 97-107.

<sup>3</sup> Обзор Сырдарьинской области за 1904 год. -Ташкент, 1905. – С.126.

1897-yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra, shahar aholisining 75,6 foizini o'zbeklar, 5,3 foizini ruslar, 4,5 foizini tojiklar, 2,2 foizini qozoqlar va qirg'izlar tashkil etgan. 1910-yilga kelib ruslar soni 9,6 foizga yetgan <sup>4</sup>.

XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Toshkent aholisi jadal sur'atlar bilan o'sdi. 1865-yilda taxminan 100 ming kishi bo'lgan shahar aholisi 1897-yilda 155,7 ming kishiga, 1910-yilda esa 201 ming kishiga yetdi. Demak, 45 yil ichida aholi 2 barobardan ko'proq o'sgan. 1865-1897-yillar oralig'ida Toshkent aholisi eng yuqori sur'atda (55,7%) o'sgan. Bu asosan shaharning Rossiya imperiyasi tarkibiga qo'shilishi va uning ma'muriy markazga aylanishi bilan bog'liq.

1897-1904 yillarda o'sish sur'ati biroz sekinlashgan bo'lsa, 1904-1910-yillarda yana tezlashgan. Bu holat shaharning iqtisodiy rivojlanishi va migratsion jarayonlar bilan izohlanadi.

**Toshkent shahar aholisining etnik tarkibi (1897-1910 yillar)**

<b>Millati</b>	<b>1897-yil</b>	<b>1910-yil</b>
O'zbeklar	75,6	70,8
ruslar	5,3	9,6
tojiklar	4,5	4,2
Qozoq va qirg'izlar	2,2	2,0
boshqalar	12,4	13,4

Ko'rinib turibdiki, 13 yil ichida shahar aholisining etnik tarkibida sezilarli o'zgarishlar yuz bergan. O'zbeklar salmog'i 4,8 foizga kamaygan bo'lsa, ruslar ulushi 4,3 foizga oshgan. Bu holat asosan rus aholisining ko'chib kelishi bilan bog'liq. Boshqa millatlar ulushi ham biroz o'zgargan. Aholining tez sur'atda o'sishi shahar infratuzilmasiga ham ta'sir ko'rsatgan. 1910-yilga kelib shaharda 233 ta sanoat korxonasi, 53 ta o'quv yurti, 4 ta shifoxona faoliyat yuritgan<sup>5</sup> [4]. 1909-yilda shahar ko'chalarida birinchi ko'nka-tramvay paydo bo'ldi. Bu o'zgarishlar shaharning zamonaviy qiyofasini shakllantirdi. Shu bilan birga, aholining tez o'sishi bir qator muammolarni keltirib chiqardi. Shahar aholisining aksariyati an'anaviy turar-joylarda yashashda davom etdi. Suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, ko'chalarning obodonlashtirilishi kabi masalalar dolzarb bo'lib qoldi. Shahar ma'muriyati bu muammolarni hal etish uchun bir qator chora-tadbirlar ko'rdi, ammo ularning to'liq yechimi XX asrning keyingi davrlariga qoldi.

Umuman olganda, XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Toshkent aholisining tez sur'atlarda o'sishi shaharning Turkiston o'lkasidagi yetakchi markazga aylanishini ta'minladi. Bu jarayon shaharning keyingi rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi.

Temir yo'l qurilishi ham shahar aholisining ko'payishiga ta'sir ko'rsatdi. 1899-yilda Toshkent-Krasnovodsk temir yo'li, 1906-yilda esa Toshkent-Orenburg temir yo'li qurib bitkazildi. Bu esa shaharga yangi ishchi kuchi oqimini kuchaytirdi.

Shahar aholisining ko'payishi ta'lim tizimining rivojlanishiga ham olib keldi. 1910-yilga kelib shaharda 53 ta o'quv yurti faoliyat yuritgan<sup>6</sup>. Bular orasida an'anaviy maktab va madrasalar bilan bir qatorda rus-tuzem maktablari, gimnaziyalar ham bor edi.

<sup>4</sup> Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. -Скобелев, 1912. – С.67.

<sup>5</sup> Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. -Скобелев, 1912. – С. 163.

<sup>6</sup> Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. -Скобелев, 1912. – С. 192.

Natijada aholining savodxonlik darajasi oshdi. 1897-yilda savodxonlar 10,9 foizni tashkil etgan bo'lsa<sup>7</sup>, 1910-yilga kelib 15 foizga yetdi.

Shaharning “yangi” qismi aholisi tarkibiga alohida to'xtaladigan bo'lsak, Toshkent bosib olinganining dastlabki yillarida uning “yangi” qismi aholisi harbiy amaldorlar va aksari savdogarlardan iborat bo'lgan. 1867-yilda №1 fortda joylashgan harbiy askarlar garnizonida 3000 ta kishini, ulardan askarlar 1525 va ayollari 356 kishini tashkil etgan. Chor hukumati xizmati o'tab bo'lgan askarlarni Turkiston o'lkasida qolishidan manfaatdor edi. Shuning uchun ham o'lkada qolgan harbiy oilalarga bir qancha imtiyozlar berilgan. O'lkada qolgan har bir harbiy oilasi 7 desyatinadan kam bo'lmagan hosildor yerlar bilan ta'minlangan.

1866 yilda shaharga kelgan A.P.Xoroshinning shohidlik berishicha, “xatto tikuvchi va etikdo'zlar ham faqat askarlardan iborat bo'lgan”. Bosib olingan yerlarda chorizmning ahvoli uncha mustahkam bo'lmagan dastlabki vaqtlarda bu tabiiy hol edi, albatta. Keyinchalik Turkiston o'lkasida chorizm ta'siri va hukmronligi kengayishi bilan Rossiyadan odamlar oqib kela boshladi. Aholini ko'chirib keltirish hisobiga ko'payib borishi va Turkiston o'lkasini ruslashtirish ham mustamlakachilik siyosatining asosiy vazifalaridan biri edi.

Har yili Rossiyaning turli burchaklaridan kelgindilar ko'plab ko'chib kela boshlaydilar.

Natijada “yangi” shahar aholisi 4 yil ichida ikki baravardan ziyodga ortgan. 1875-yilgi shahar aholisi ro'yxati ma'lumotlari bo'yicha u 4859 kishini tashkil etgan, shulardan-2982 nafari erkaklar, 1877 nafari ayollar bo'lgan. Bu vaqtga kelib tikuvchilar (55), duradgorlar (50), etikdo'zlar (36), g'isht teruvchilar (18), bo'yoqchilar (11) lar ortib borgan. Fotosuvratchilar, soatsozlar, gugurt va qurol ustalari, sovun yasovchilar paydo bo'lgan.

Rus ma'muriyati Toshkentga tobora ko'proq oqib kelayotgan odamlarni ish bilan ta'minlay olmagan. Barchani ish bilan ta'minlash uchun shahar sanoati u qadar rivojlanmagandi. 1875-yil shahar aholisi ro'yxati natijasida 1208 nafar odamni “tayinli ishi yo'q” bo'lgan. Bular asosan iste'fodagi askarlar va din xizmatiga kirib ketganlar bo'lgan. Shibliining narigi tomoniga aholi ko'chirib o'tkaza boshlangach “tayinli ishi yo'q odamlar” shahar “yangi” qismidagi bog'lardan boshpana topishgan va “Shibliining narigi yog'idagilar” nomini olganlar. Shaharning “yangi” qismiga 11 ta vrach, 9 ta felqdsher, 8 ta doya, 4 dorixonachi, 11 mashshoq va 8 ta o'qituvchi to'g'ri kelgan.

1890-yildaToshkentning yangi shahar qismida aholi soni hiyla o'sgan. Agar 1881-yilda 8343 odam bo'lsa, 1896-yilda esa 18221 nafarga yetgan. Quyidagi jadvaldan bu aniq ko'rish mumkin.

Nasabi va unvoni	Katta yoshdagi aholi		Bolalar	
	er	ayol	o'g'il	qiz
Dvoryan	300	311	131	132
Ruhoniy	16	17	14	14
<b>1 gildiya nasliy faxriy fuqaro – 1 gildiya</b>				

<sup>7</sup> Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Сырдарьинская область. -СПб., 1905. – С. 208.

Savdogarlar: 1 gildiya	7	6	11	7
2 gildiya	204	227	75	83
Meshchanlar	1834	1458	522	759
Dehqonlar	705	603	522	591
<b>Quyi amaldorlar:</b>				
iste'fodagilar	272	148	190	197
zahiradagilar	383	279	193	153
Kazaklar	77	95	82	96
Iste'fodagi zobitlar va amaldorlar	461	323	307	340
<b>Chet el fuqarolari:</b>				
yevropaliklar	18	13	8	11
osiyoliklar	18	17	12	11
<b>Tub aholi:</b>				
Mullalar va boshqa ruhoniylar	20	15	36	22
Sultonlar naslidan	1	1	5	6
Hojilar	45	32	47	50
Savdogarlar	882	310	352	258
Sanoatchilar	178	115	108	121
Hunarmandlar	256	144	111	106
Dehqonlar	214	270	368	216
Qora ishchilar	1149	196	119	107
<b>Jami:</b>				18227 nafar

Ko'rinib turganidek, bu davrda Toshkent yangi qismining ish bilan band aholisi o'rtasida tub milliy vakillari miqdori ancha o'sgan. Keyinchalik bu miqdor yanada oshgan. 1897-yillarda ular 25000 nafar kishini tashkil etgan. 1898-yilda 26015, 1899-yilda 26864, 1900-yilda 31578 nafar. Keyinchalik Turkiston o'lkasida temir yo'l qurilishi munosabati bilan o'lkaga ko'chirib keltirilganlar soni yanada ko'payib ketdi. Temir yo'llarni qurilishi nafaqat kelgindilar uchun balki o'lkadagi boyliklarni tashib ketish uchun juda qulay transport vositasi bo'lib xizmat qildi.

Ularning tarkibi turlicha bo'lib, 1890-yillargacha ko'chib kelganlarning asosan o'rta hol dehqonlardan iborat bo'lgan<sup>8</sup>.

<sup>8</sup> Маев Н.А. Азиатский Ташкент // Материалы для статистики Туркестанского края. Вып.4. -СПб., 1876. -С. 260-313.

Lekin Rossiyadagi 1891-1892 yillardagi ocharchilik oqibatida aholining eng kambag'al qismi ham Turkiston o'lkasiga oqib kela boshladi. Ayniqsa, Shahar rivoji radiusli xalqa tizimida olib borildi. Unda to'g'ri va boshi berk ko'chalar, bog'lar, xiyobonlar, maydonlar, ko'rkam davlat binolari, jamoat muassasalari, turar-joy uylari qurildi.

XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Toshkent shahar aholisi sezilarli darajada ko'paydi va tarkibiy o'zgarishlarga uchradi. Aholi soni 45 yil ichida 2 barobardan ko'proq o'sdi. Bu jarayonga tabiiy o'sish, migratsiya, shahar hududining kengayishi va iqtisodiy rivojlanish kabi omillar ta'sir ko'rsatdi. Natijada shahar aholisining etnik, ijtimoiy va madaniy qiyofasi o'zgardi.

Aholining tez sur'atlarda o'sishi shaharsozlik muammolarini keltirib chiqardi. Umuman olganda, ushbu davr Toshkentning yirik shaharga aylanish jarayonining boshlanishi edi.

XIX asrning 2-yarmi va XX asr boshlarida Toshkentda sezilarli demografik o'zgarishlar yuz berdi. Shahar aholisi rus ko'chmanchilari va atrofdagi viloyatlardan kelgan muhojirlar oqimi tufayli tez o'sdi. Rossiyaning siyosiy nazorati, modernizatsiya harakatlari va iqtisodiy imkoniyatlar bu o'zgarishlarning asosiy omili bo'ldi. Biroq, shaharda rus hukmronligining kuchayishi mahalliy aholi bilan ham keskinlikni keltirib chiqardi va shahar kelajagini belgilovchi ijtimoiy va siyosiy harakatlarga olib keldi. XX asr boshlariga kelib Toshkent rang-barang va o'sib borayotgan shahar markaziga aylanib, sovet davridagi demografik va siyosiy o'zgarishlar uchun zamin yaratdi.

## REFERENCES

1. Shermatov X. Toshkent tarixi va madaniyati - T.: Sharq, 2002. – B. 45.
2. Юлдошев А. Аграрные отношения в Туркестане (конец XIX – начало XX вв.). – Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 255.
3. Юнусходжаева М. Из истории землевладения в Туркестане (на материалах хозяйства князя Н.К.Романова). – Ташкент: Фан, 1970. – С.104.
4. Черняев М.Г. Доклад о занятии города Ташкента // Туркестанский сборник. Т. 20. - СПб., 1869. -С. 97-107.
5. Первая всеобщая перепись населения Российской империи 1897 г. Сырдарьинская область. -СПб., 1905. – С. 208.
6. Статистический обзор Ферганской области за 1910 год. -Скобелев, 1912. – С. 83.
7. Агзамова Г.А. Ташкент во второй половине XIX -начале XX века: социально-экономическое и культурное развитие. -Ташкент: Yangi nashr, 2009. – С. 128.